

## **QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHINI MODERNIZATSIYA QILISH BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR**

**S.Tursunov**

*“TIQXMMI”MTU ning Qarshi Irrigatsiya va Agrotexnologiyalar Instituti*

**Annotasiya:** *Yer resurslaridan Oqilona va samarali foydalanish asosida har qanday ijtimoiy-iqtisodiy va tabiat qonunlariga tegishli bo'lgan umum iqtisodiy qonunlar yotadi. Ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik yer resurslari mazmunining tashqi tomoni, ya'ni boshqarish bo'yich davlatning tashkiliy-xo'jalik va huquqiy tadbirlarini ifodalaydi.*

**Kalit so'zlar:** *Zamonaviy texnologiya, rekonstruksiya, konsepsiya.*

### **KIRISH**

Keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining real tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash tadbirlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, agrar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangi bosqichga ko'tarish masalalari shu kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Shu munosabat bilan muhtaram Prezidentimiz tomonidan chorvachilik, g'allachilik, kartoshkachilik kabi sohalarda ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganish va amalda qo'llash, bizning iqlim sharoitimizda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadigan zamonaviy sug'orish tizimlari, energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiya va agrotexnologiyalarni o'rganish, urug'chilik-seleksiya ishlarini yanada takomillashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mahsuldorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan edi.

Usullar. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish orqali tarmoqni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan —Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida bayon etilgan. Ushbu konsepsiyada belgilab berilgan ustuvor vazifalar asosida O'zbekiston respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan dasturda 2011-2015 yillar mobaynida:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,3 marta oshirish, uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 17,5 foizdan 13,5 foizga pasaytirish;
- qishloq xo'jaligida ilg'or agrotexnologiyalar, resurslarni tejaydigan usullarni joriy etish, seleksiya va urug'chilik tizimini rivojlantirish hisobidan ekinlar hosildorligini oshirishga erishiladi.



Bunda mineral o'g'itlardan foydalanish samaradorligini 15 foizga oshirish, suv sarfini 12 foizga kamaytirish;

- meva-sabzavot tayyorlashni 1,5 barobari, kartoshka yetishtirishni 1,4 barobar, poliz va uzumni 1,3 barobar ko'paytirish;

- naslchilik ishlarini takomillashtirish, ozuqa bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalar va modernizatsiya natijasida naslchilik xo'jaliklari sonini 2,5 barobardan, ozuqa ekinlari maydonini 1,3 barobar oshirish;

- zooveterinariya punktlarini zamonaviy jihozlash, xizmatlar sifatini oshirish hisobidan chorva mollari sonini 1,3 barobar, go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,3 marta oshirish;

- parrandachilik va baliqchilik tarmoqlari rivojiga alohida ahamiyat qaratib, parrandalar sonini 1,8 marta oshirib, 670 ta baliqchilik xo'jaligi tashkil etish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash quvvatlarini va qayta ishlash hajmini kengaytirish tadbirlari doirasida qishloqlarda zamonaviy minitexnologiyalar negizida qayta ishlash korxonalarini ishga tushirish orqali meva-sabzavot konservalari ishlab chiqarishni 1,7 barobar, go'sht konservalarini 2,2 barobar, kolbasa mahsulotlarini 1,8 barobar, sut mahsulotlarini 1,9 barobar oshirish;

- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi mablag'lari hisobidan meliorativ inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, tomchilatib sug'orish tizimini yo'lga qo'yish va melioratsiya texnikalarini xarid qilish bo'yicha qariyb 500 million dollarga teng bo'lgan loyihalar hisobidan 1,4 million gektar yer maydonining meliorativ holatini yaxshilash;

- qishloq xo'jaligi texnikasi parklarini kengaytirish, ularni sifat jihatdan yangilash, fermerlarni unumli qishloq xo'jalik texnikalari bilan ta'minlash, xizmat sifatini yaxshilash kabi strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim prognoz vazifalari belgilangan.

Munozara. Respublikamizda o'tgan yillar ichida qishloq xo'jaligi sohasida iqtisodiy isloxlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida fermer xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirish ularni samarali faoliyat yuritishlari uchun ularni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mikroreditlar berish, ma'lum muddat soliq to'lashdan ozod qilish va soliq to'lashni ixchamlashtirish, maxsulotni tayyor tovar xoliga keltirib eksport qilish va import yo'li bilan moddiy-texnika vositalarini olishda imtiyozlar, ular uchun lizing faoliyatini yanada kuchaytirish, ularning xuquqlarini buzilishini oldini olishda xo'jalik sudlarini mavqeyini ko'tarish, maxalliy va chet el mutaxassislari ishtirokida fermerlarni iqtisodiy, xuquqiy va ishlab chiqarish bilan bog'liq bilimlarini oshirish va xakazolar fikrimizning isbotidir.



Islaxotlarni chuqurlashtirish jarayonida qishloq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat yurituvchi fermer xo'jaligida tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning faoliyatini o'sishini ta'minlovchi muxim omillardan biri xisoblanadi. Chunki tadbirkorlik qishloq xo'jaligida iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashda, bandlik muammolarini xal etishda, qishloqda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va mulkdorlar sinfini shakllantirishda muxim omillardan xisoblanadi.

Shu kechayu-kunduzda respublikamiz qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklarining tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish uchun quyidagi masalalar o'z yechimini topishi lozim:

- fermer xo'jaliklari uchun xom-ashyo resurslariga bo'lgan talabni qondirish;
- tadbirkorlikning iqtisodiy va xuquqiy bilim darajasini oshirish;
- ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida ularga ajratilayotgan imtiyozli kreditlarni ko'paytirish;
- kreditlarga ustama foizlar to'lanishida turli xil qiyinchiliklarni bartaraf etish;
- mexnatga xaq to'lash fondidan soliq yukini kamaytirish;
- fermer xo'jaliklari uchun xisobot tizimini soddalashtirish;
- fermer xo'jaliklariga kreditlar xajmini ko'paytirish bilan, ularni ajratish shartlarini yengillashtirish;
- raxbar tadbirkorlar bilimi va malakasini doimiy oshirish maqsadida davra stollarini tashkil etish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;
- respublika vaqtni matbuotida tadbirkorlik tuzilmalari va faoliyatini yoritishning raqobat muxitini shakllantirish;
- fermer xo'jaliklarini tashqi bozorlarga chiqishlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.

Respublikamiz tijorat banklari tomonidan tadbirkor fermer xo'jaliklariga imtiyoz yoki tijorat kreditlari ajratilishidan oldin joylardagi palata va sug'urta kompaniyalari vakillari bilan birgalikda maslaxat qilib, ular bergan xulosa bo'yicha kredit ajratishni yo'lga qo'yish lozim. Umuman qishloq xo'jaligi va qolaversa fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanishi birinchi navbatda tadbirkorlik faoliyati negizida moliyaviy barqaror bo'lishi bilan bog'liq. Chunki moliyaviy barqarorlik birinchidan dexqonning ijtimoiy xayotini yaxshilanishini ta'minlasa, ikkinchidan, yerga va asosiy vositalarga mablag' yo'naltirishini (investitsiya qilinishini) ta'minlaydi. Natijada, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, sarf-xarajatni kamaytirish va pirovard natijada barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyati yaratiladi.



Fermer xo'jaliklariga ta'minlash va texnik xizmat ko'rsatish vazifalari MTP tarkibidagi maxsus texnik xizmat ko'rsatish bo'limi mutaxassislariga yuklatilgan. Bo'lim ixtiyorida kichik traktorlar va mexanizatsiya agregatlari, ko'chma ustaxonalar, zarur asbob uskunalar bor. Fermer xo'jaliklariga ko'rsatiladigan servis xizmatlar va ular bilan MTP o'rtasida tuziladigan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Fermer xo'jaliklariga yordam berishning yana bir tomoni, ularga o'z maxsulotlarini takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratishdir. Chunki, ularni ishlab chiqarish xarajatlarini ko'pligi va sof foydani kam bo'lganligi natijasida ularning daromadlarini kamligi tufayli takror ishlab chiqarish imkoniyatlari doimo mavjud emasdir. Bu muammoni maxsulotni qayta ishlab pirovard, tovar maxsuloti xoliga keltirish bilan xal qilinsa, fermer xo'jaliklarida band bo'lgan oila a'zolarini daromadini va turmush darajasini ko'tarish mumkin.

Xulosa.Umuman xulosa qilib fikrlaydigan bo'lsak, fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlanishi uchun ularga xizmat ko'rsatish soxasida texnika va uskunalarni lizing asosida yetkazib berish va ta'mirlash ishlarini, agrotexnik tadbirlarni bajarish bo'yicha xizmat ko'rsatish, mineral o'g'itlar yetkazib berish, o'simliklarni ximoya qilish, veterinariya xizmatlari, agrobiotexnika xizmatlari, ta'minot soxasida esa yoqilg'i moylash materiallari, extiyot qismlar, urug'lik va zotli mollar yetkazib berish va boshqa masalalarni amaliy yechimini ijobiy xal etish zarurdir.

Yuqorida keltirilgan tadbirlarni amalga oshirish qishloq xo'jaligida, qolaversa fermer xo'jaliklarida servis xizmatlarini rivojlantirish faoliyatini takomillashtirish, bajariladigan ishlar sifatini yaxshilash, shuningdek maxsulot yetishtiruvchi sub'ektlar fermer xo'jaliklarini samarali faoliyat yuritishiga imkoniyat yaratadi

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga kutaradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012 yil
2. Farmonov T.X. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. –T.: Yangi asr avlodi, -2004. –30 b.
3. A.Sultonov va boshqalar. Suv xo'jaligi iqtisodiyoti, o'quv qo'llanma, 2010 yil.

